Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024 yil 13-noyabr, № 233 (8856) Chorshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

O‘ZBEKISTON UMUMIY FAROVONLIK VA UZOQ MUDDATLI “YASHIL” TARAQQIYOT YO‘LIDA OCHIQ MULOQOT VA AMALIY SHERIKLIKKA DOIM TAYYOR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 12-noyabr kuni Boku shahrida o‘tayotgan BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi hadli konvensiyasi Tomonlari konferensiyasining 29-sessiyasi (COP29) doirasidagi Jahon yetakchilari sammitining yalpi majlisida nutq so‘zladi.





Tadbirda dunyoning 80 dan ortiq mamlakatlaridan davlat va hukumatlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari rahbarlari ishtirok etmoqda.

Davlatimiz rahbari so‘zining avvalida Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevni ushbu tarixiy sammitni muvaffaqiyatli tashkil etgani bilan samimiy tabriklab, Ozarbayjonning bugungi iqlim tahdidlariga qarshi kurashish maqsadida xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha faol sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatladi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, iqlim o‘zgarishlari bugungi kunda asosiy global tahdidga aylanib, geosiyosiy keskinlikning kuchayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Kambag‘allikka qarshi kurash, oziq-ovqat va energetik xavfsizlikni ta’minlash, ichimlik suvi va resurslardan foydalanish muammolari kuchayib bormoqda.

Iqlim o‘zgarishlarining oqibatini Markaziy Osiyo o‘tkir his qilmoqda.

Ular aholining turmush sifatini oshirish va milliy taraqqiyot strategiyalarini ro‘yobga chiqarish yo‘lida to‘siqqa aylanmoqda.

Parij kelishuvlari doirasida asosiy maqsad – mintaqada havo haroratining jadal o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslik, ushbu ko‘rsatkichlarni joriy yuz yillikda 1,5-2 daraja atrofida saqlab qolishdan iborat.

➡2

HAMKORLIK ALOQALARINI MUSTAHKAMLASHGA QARATILGAN MUHIM UCHRASHUVLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 12-noyabr kuni Boku shahrida o‘tayotgan BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha (COP29) konferensiyasi doirasida Yevropa kengashi raisi Sharl Mishel, Finlyandiya Prezidenti Aleksandr Stubb, Chernogoriya Prezidenti Yakov Milatovich, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso, Islom taraqqiyot banki prezidenti Muhammad bin Sulaymon al-Jassir, Yashil iqlim fondi ijrochi direktori Mafalda Duerte, Islom dunyosi ta’lim, fan va madaniyat tashkiloti (ICESCO) bosh direktori Salim al-Malik, Global o‘zgarishlar instituti raisi Toni Blerni qabul qildi.





Yevropa kengashi raisi Sharl Mishel bilan uchrashuvda mamlakatimizning Yevropa Ittifoqi bilan ko‘p qirrali hamkorligini yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi yangi bitimni tez fursatda qabul qilish, shuningdek, “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” formatidagi birinchi sammitga tayyorgarlik ko‘rishga alohida e’tibor qaratildi.

Finlyandiya Prezidenti Aleksandr Stubb bilan uchrashuvda ko‘p qirrali O‘zbekiston – Finlyandiya hamkorligini rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi. Faol siyosiy va parlamentlararo aloqalar mamnuniyat bilan qayd etildi.

Yangi iqtisodiy kun tartibini shakllantirish uchun metallurgiya, elektrotexnika, kimyo, telekommunikatsiya va boshqa sohalarda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish dasturini tayyorlash taklif etildi.

➡2

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING IQLIM O‘ZGARISHI BO‘YICHA KONFERENSIYASI (COP29)DAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Avvalambor, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev Janobi Oliylarini bugungi tarixiy Konferensiyani go‘zal Boku shahrida yuksak darajada tashkil etgani bilan samimiy tabriklayman.

Biz Ozarbayjonning zamonaviy iqlim tahdidlariga qarshi kurashish yo‘lida xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha faol sa’y-harakatlarini to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Iqlim o‘zgarishlari bugungi kunda asosiy global tahdidga aylanib bormoqda, geosiyosiy ziddiyatlar kuchayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, kambag‘allikka qarshi kurash, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi, suv va resurslardan foydalanish muammolarini kuchaytirmoqda.

Bularning asoratlarini Markaziy Osiyoda o‘tkir his qilmoqdamiz. Iqlim muammolari aholimizning turmush sifatini oshirish va milliy taraqqiyot strategiyalarini ro‘yobga chiqarishda yangi to‘siqqa aylanmoqda.

Parij bitimi doirasidagi bosh maqsadimiz – mintaqada havo haroratining jadal o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslik va joriy yuz yillikda 1,5-2 gradus atrofida saqlab qolishdir.

Bu borada biz O‘zbekistonda uglerod neytralligiga erishish bo‘yicha keng miqyosdagi islohotlarni qat’iy olib boryapmiz. 2030-yilgacha havoga “issiqxona gazlari” chiqarilishini 35 foizga kamaytirishni reja qilganmiz. Bu majburiyatni 2050-yilga qadar yanada kengaytirishga tayyormiz.

“Yashil” energetika ulushini 40 foizgacha oshiramiz. Elektromobil va “yashil” vodorod klasterlari, quyosh va shamol generatsiya xablarini yaratyapmiz. “Yashil makon” dasturimiz doirasida ko‘kalamzor hududlarni keskin ko‘paytiryapmiz.

Qo‘shni mamlakatlar bilan Mintaqaviy iqlim strategiyasini hayotga tatbiq qilmoqdamiz. Shu kunlari Yevropaga “yashil” energiya yetkazish bo‘yicha ko‘p tomonlama bitimni imzolaymiz.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

O‘zbekiston global iqlim o‘zgarishlari oqibatlarini birgalikda bartaraf etishda o‘zining amaliy hissasini kengaytirish niyatida.

Birinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlarga iqlim xatarlarini aniqlash uchun yetakchi davlatlar va xalqaro institutlarning texnik ko‘magini kengaytirish dolzarbdir.

Bu borada Iqlim tufayli yo‘qotish va zararlarni baholash bo‘yicha xalqaro markaz ta’sis etishni taklif qilamiz.

Ikkinchidan, transchegaraviy suv resurslari ifloslanishining oldini olish va barqaror bioxilmaxilligini saqlashda yagona yondashuvlar zarur.

Mintaqamiz misolida aytib o‘tmoqchimanki, bir avlod ko‘z o‘ngida Orol dengizining butunlay yo‘qolishi sayyoramiz miqyosidagi fojiaga aylandi. Shu o‘rinda biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Daryo ekotizimlarining butunligi va ekologik xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha majburiyatlar to‘g‘risidagi deklaratsiyani ishlab chiqish tarafdorimiz.

Uchinchidan, ko‘p tomonlama yetakchi tuzilmalar ishtirokida o‘simliklarning iqlim o‘zgarishlariga chidamliligini oshirish uchun Genetik resurslarning mintaqaviy bankini ishga tushirishni reja qilganmiz.

Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan davlatlar uchun yurtimizda Birlashgan Millatlar Tashkilotining innovatsion agrosanoat xabini yaratish tashabbusini ilgari suramiz.

To‘rtinchidan, iqlim o‘zgarishlaridan zarar ko‘rayotgan megapolis va shaharlarning barqaror rivojlanishi bo‘yicha ilg‘or bilim va amaliyotlar transferi uchun Jahon iqlim poytaxtlari alyansini tashkil etishni va uning birinchi forumini Toshkentda o‘tkazishni taklif qilamiz.

Beshinchidan, kelgusi yili 15-may – Xalqaro iqlim kunida Orolbo‘yi mintaqasida o‘tkaziladigan Raqamli “yashil” tashabbuslar global yoshlar festivalida davlatlaringiz vakillarini kutib qolamiz.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

O‘zbekiston umumiy farovonlik va “yashil” taraqqiyot yo‘lida ochiq muloqot va sheriklikka doim tayyor ekanini yana bir bor ta’kidlayman.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 13-noyabr

O‘ZBEKISTON UMUMIY FAROVONLIK VA UZOQ MUDDATLI “YASHIL” TARAQQIYOT YO‘LIDA OCHIQ MULOQOT VA AMALIY SHERIKLIKKA DOIM TAYYOR

1 Bu borada O‘zbekistonda uglerod neytralligiga erishish bo‘yicha keng miqyosdagi islohotlar olib borilmoqda. 2030-yilgacha havoga “issiqxona gazi” chiqarishni uchdan bir qismga kamaytirish rejalashtirilgan. Bu majburiyatlar 2050-yilga qadar yanada kengaytiriladi. “Yashil” energetika ulushi 40 foizga yetadi.

Elektromobillar va “yashil” vodorod ishlab chiqarish klasterlari barpo etilmoqda, quyosh va shamol generatsiyasi xablari yaratilmoqda. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ko‘kalamzor hududlar kengaytirilmoqda.

Qo‘shni mamlakatlar bilan birgalikda Mintaqaviy iqlim strategiyasi amalga oshirilmoqda. Shu kunlarda Yevropaga “yashil” energiya yetkazib berishni tashkil etish to‘g‘risida ko‘p tomonlama bitim imzolanadi.

Global iqlim o‘zgarishlari oqibatlarini birgalikda yengib o‘tish maqsadida O‘zbekiston yetakchisi qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar duch kelayotgan iqlim xatarlarini tanqidiy tahlil va moliyaviy baholash uchun yetakchi davlatlar, ko‘p tomonlama institutlar va konvensiyalarning texnik hamda moliyaviy ko‘magini kengaytirish maqsadida Iqlim tufayli yo‘qotish va zararlarni baholash bo‘yicha xalqaro markaz ta’sis etish taklif qilindi.

Atrof-muhit ifloslanishi bilan bog‘liq xatarlarni qisqartirish, barqaror bioxilmaxillik va transchegaraviy suv resurslari masalalarida yagona yondashuvlar ishlab chiqish zarurligini qayd etib, davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Daryo ekotizimlarining butunligi va ekologik xavfsizligini ta’minlash sohasida majburiyatlar to‘g‘risidagi Deklaratsiyani ishlab chiqish tashabbusini ilgari surdi.

Shuningdek, O‘zbekistonda o‘simliklarning iqlimga chidamliligini oshirish uchun Genetik resurslarning mintaqaviy bankini hamda dengizga chiqish yo‘liga ega bo‘lmagan mamlakatlar uchun BMTning innovatsion agrosanoat xabini tashkil etish taklif qilindi.

Iqlim o‘zgarishlaridan zarar ko‘rayotgan megapolis va shaharlarning barqaror rivojlanishi, yashash uchun qulay sharoitlar yaratish sohasida tajriba va bilim, eng yaxshi amaliyotlar transferi uchun Jahon iqlim poytaxtlari alyansini tashkil etish hamda uning birinchi forumini Toshkentda o‘tkazish tashabbusi bildirildi.

Prezidentimiz “COP29” mamlakatlari vakillarini kelgusi yili 15-mayda – Xalqaro iqlim kunida Orolbo‘yida o‘tkaziladigan Raqamli “yashil” tashabbuslar global festivalida ishtirok etishga taklif etdi.

So‘zining yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston umumiy farovonlik va uzoq muddatli “yashil” taraqqiyot yo‘lida ochiq muloqot va amaliy sheriklikka doim tayyor ekanini ta’kidladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Ozarbayjon Respublikasiga amaliy tashrifi davom etmoqda.

HAMKORLIK ALOQALARINI MUSTAHKAMLASHGA QARATILGAN MUHIM UCHRASHUVLAR

1 Shu ma’noda, 2025-yil yanvar oyida Xelsinki shahrida bo‘lib o‘tadigan Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig‘ilishi va biznes forumiga puxta tayyorgarlik ko‘rish muhimligi ta’kidlandi.

Ta’lim va ekologiya sohasidagi almashinuvlarni mustahkamlash, shu jumladan, BMTning Orolbo‘yi uchun Trast jamg‘armasi faoliyatida Finlyandiyaning faol ishtirok etishi istiqbollariga alohida e’tibor qaratildi.

Bo‘lajak oliy darajadagi uchrashuvlar rejasi ko‘rib chiqildi.

Chernogoriya Prezidenti Yakov Milatovich bilan uchrashuvda siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va turizm sohalarida o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalalari muhokama qilindi.

Iqtisodiy kun tartibini ishlab chiqish uchun Hukumatlararo komissiya tuzish va uning birinchi yig‘ilishini kelgusi yilda Toshkent shahrida biznes forumi bilan birgalikda o‘tkazish taklif etildi.

Bundan tashqari, savdo-iqtisodiy hamkorlik va investitsiyalarni himoya qilish bo‘yicha asosiy bitimlar tayyorlanadi, ustuvor yo‘nalishlarda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishga doir “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqiladi.

Bo‘lajak oliy darajadagi uchrashuvlar rejasi ham ko‘rib chiqildi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso bilan uchrashuvda ushbu nufuzli xalqaro moliya instituti bilan keng qamrovli hamkorlikni kengaytirishning amaliy jihatlari ko‘rib chiqildi.

Bankning mamlakatimizga investitsiyalari 5 milliard yevrodan oshgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha O‘zbekiston bankning mintaqamizdagi eng yirik hamkori hisoblanadi.

YETTBning faol ishtirokida bank sektorini xususiylashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda, investitsiyalar va yer qa’ridan foydalanish sohasidagi me’yoriy-huquqiy baza takomillashtirilmoqda.

Davlatimiz rahbari loyihalarni tayyorlash sifati va samaradorligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratdi.

O‘zbekiston va ETTB o‘rtasidagi hamkorlik strategiyasini amalga oshirish va uni yanada boyitish muhimligi ta’kidlandi. Energetika samaradorligi, kichik va o‘rta biznes, ayollar va yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy soha va infratuzilmada davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, “yashil” shaharlarni rivojlantirish sohalarida yangi loyiha va dasturlarni amalga oshirish hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilandi.

Kelgusi yilda Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi yig‘ilishini tayyorlash va o‘tkazish yuzasidan ham fikr almashildi.

Islom taraqqiyot banki prezidenti Muhammad bin Sulaymon al-Jassir bilan uchrashuvda ushbu yetakchi xalqaro moliyaviy institut bilan hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari Islom taraqqiyot banki bilan sheriklik jadal rivojlanib borayotganini yuqori baholadi. Joriy yilning mart oyida Toshkentda islom dunyosining yetakchi moliya institutlari ishtirokida bank rahbarligidagi Arab muvofiqlashtirish guruhining yig‘ilishi muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

ITB bilan loyihalar portfeli 4 milliard dollardan oshdi, ularning 40 foizi xususiy sektorga to‘g‘ri kelmoqda.

Bank ishtirokida tashkil etilgan O‘zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha qo‘shma jamg‘arma kapitali izchil shakllantirilmoqda.

Ta’lim, sog‘liqni saqlash, infratuzilma, tadbirkorlik, ekologiya sohalarida yangi loyiha va dasturlarni amalga oshirish bo‘yicha hamkorlikni kengaytirish, xususiy investitsiyalarni safarbar etish, bank tuzilmalarini loyiha ishlariga faol jalb qilishga alohida e’tibor qaratildi.

Mamlakatimiz sanoati va tog‘-kon tarmog‘idagi yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda ITBning ishtiroki yuzasidan ham fikr almashildi.

Yashil iqlim fondi ijrochi direktori Mafalda Duerte bilan uchrashuvda iqlim o‘zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatishga qaratilgan qo‘shma loyiha hamda dasturlarni amalga oshirish bo‘yicha hamkorlikni yanada mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Jamg‘arma tomonidan O‘zbekistonning tegishli tashkilotlari salohiyatini rivojlantirish va milliy moslashuv rejalarini ishlab chiqishga ko‘mak ko‘rsatilayotgani yuqori baholandi.

Hozirgi kunda qo‘shma loyihalar portfeli 160 million dollarni tashkil etib, suv resurslarini boshqarish, “yashil” energetikani rivojlantirish, “yashil” moliyalashtirish va boshqa bir qator ustuvor yo‘nalishlarni qamrab olgan. Bundan tashqari, 5 milliard dollarlik ikkita mintaqaviy va 500 million dollarlik uchta milliy loyiha ishlab chiqilmoqda.

Innovatsion ko‘kalamzorlashtirish va yerlarni barqaror boshqarish, Orolbo‘yidagi ijtimoiy-ekologik vaziyatni yaxshilash dasturlarini amalga oshirish orqali sheriklikni yanada kengaytirishga kelishib olindi.

Islom dunyosi ta’lim, fan va madaniyat tashkiloti (ICESCO) bosh direktori Salim al-Malik bilan uchrashuvda amaliy hamkorlikni kengaytirish va qo‘shma gumanitar loyihalarni ilgari surish masalalari ko‘rib chiqildi.

ICESCO bilan hamkorlik bo‘yicha milliy komissiyani tezroq tuzish muhimligi qayd etildi.

Global o‘zgarishlar instituti raisi Toni Bler bilan uchrashuvda O‘zbekiston – Britaniya munosabatlarini yanada rivojlantirish istiqbollari, shuningdek, Global o‘zgarishlar instituti bilan amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalalari muhokama qilindi.

Buyuk Britaniyaning sobiq bosh vaziri yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli va ortga qaytmas islohotlar dasturini yuksak baholab, ularni amalga oshirishda ekspert-maslahat ko‘magini taklif etishga tayyorligini bildirdi.

Institut bilan birgalikda transport yo‘laklarini rivojlantirish, yangi bozorlarga chiqish, xalqaro to‘lov tizimlarini joriy etish, investitsiya siyosati samaradorligini oshirish va boshqa sohalar hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari sifatida qayd etildi.

Sheriklikning aniq yo‘nalishlarini belgilab olish uchun tegishli idoralar ekspertlari darajasida qo‘shimcha uchrashuvlar o‘tkazishga kelishib olindi.

O‘zA.

Aks sado

GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLARGA AMALIY YECHIM

Ma’lumki, dunyo yetakchilari iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq dolzarb muammolarni muhokama qilish uchun yiliga bir marta yig‘iladi. Bu bejiz emas. Chunki bu borada o‘z vaqtida choralar qabul qilinmasligi va atmosferada “issiqxona gazlari” miqdorining bundan keyin ham ko‘payishi iqlim o‘zgarishlarining salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Kecha Ozarbayjon poytaxti Bokuda bo‘lib o‘tgan navbatdagi sammitning birinchi kunida asosiy e’tibor global isish bilan bog‘liq vaziyatga qaratilgani ham ushbu masalaning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan Boku shahriga amaliy tashrifi davomida BMT Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi hadli konvensiyasi Tomonlari konferensiyasining 29-sessiyasi (COP29) tadbirlarida ishtirok etib, iqlim o‘zgarishlarining oldini olish bo‘yicha bir qator konstruktiv takliflarni ilgari surdi.

Shu o‘rinda aytish kerakki, o‘tgan davrda iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq ortib borayotgan global tahdidlarning oldini olishga jiddiy e’tibor qaratildi. Jumladan, Parij bitimi qabul qilindi. Yangi kelishuvning asosiy qirralaridan biri rivojlangan davlatlar bilan bir qatorda taraqqiy etayotgan mamlakatlar ham tashlamalar miqdorini kamaytirish majburiyatini olishi belgilab qo‘yildi.

Mamlakatimizda ham atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini saqlash, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolarni samarali hal etish, Parij bitimi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan majburiyatlarni o‘z vaqtida amalga oshirish borasida muayyan ishlar bajarilmoqda. Eng avvalo, sohaga doir qator qonunlar qabul qilindi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda esa ekologik masalalar, jumladan, fuqarolarning ekologik huquqlari kafolatlandi.

Davlatimiz rahbarining shu yil 23-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqlim kengashini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolarni samarali hal qilishga qaratilgan muhim hujjat bo‘ldi. Zero, u bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish masalalari bo‘yicha eng yuqori maslahat organi – Iqlim kengashiga asos solindi.

Mamlakatimizda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar natijasida shaharlarimizga, mahallalarimizga fayz bag‘ishlovchi yashillikka burkangan yangi yashil hududlar barpo etilmoqda. Bu, shubhasiz, yurtimiz iqlimini mo‘tadil saqlashga, pirovardida ona



tabiatni asrash, aholi salomatligini yaxshilashga xizmat qilyapti.

O‘zbekiston iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va Markaziy Osiyo ekotizimlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro ekologik tashabbuslarda ham faol qatnashib kelyapti. Ayniqsa, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan dolzarb tashabbuslar hayotga izchil tatbiq etilayotgani e’tiborga molik. Xususan, o‘tgan yili Dubay shahrida o‘tkazilgan “COP28” konferensiyasida Parij shartnomasi doirasida Iqlim o‘zgarishiga moslashish sohasidagi Global hadli mexanizm yuzasidan tezroq kelishish tarafdori ekanligi aytilib, Markaziy Osiyo iqlim muloqoti platformasida Adaptatsiya strategiyasi ishlab chiqilayotgani bildirilgan edi.

O‘tgan davr mobaynida ushbu tashabbus samarali amalga oshirildi. “Markaziy Osiyoda iqlim o‘zgarishiga moslashish bo‘yicha mintaqaviy strategiya” Germaniya hukumatining “Yashil Markaziy Osiyo” tashabbusi ko‘magida Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston davlatlari tomonidan ishlab chiqildi. “Markaziy Osiyo iqlim muloqoti platformasi” tegishli vazirlar va vazir o‘rinbosarlaridan iborat yuqori darajadagi guruh sifatida shakllantirildi.

Prezidentimiz “COP28”da iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda ilm-fan yutuqlaridan keng foydalanish lozimligiga urg‘u berib, Toshkentdagi “Yashil universitet” negizida “Iqlim ilmiy forumi (rezidensiyasi)”ni tashkil etish va uning doirasida yer degradatsiyasi, suvdan foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligi muammolarini o‘rganish tashabbusini ilgari surgandi. Oradan bir yil o‘tib ushbu tashabbus ham hayotga samarali tatbiq qilindi.

Shu bilan birga, bugungi kunda global miqyosda kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tish, BMT rezolyutsiyasi asosida Orolbo‘yi ekologik ofat zonasini “innovatsiyalar, texnologiyalar va yangi imkoniyatlar mintaqasi”ga aylantirish va bu yerda Iqlim texnologiyalari xalqaro ekspo-xabini yaratish tashabbusini hayotga izchil tatbiq etish bo‘yicha amaliy sa’y-harakatlar olib borilmoqda.

Boku sammiti doirasida ham global iqlim o‘zgarishlari oqibatlarini birgalikda yengib o‘tish maqsadida bir qator tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, davlatimiz rahbarining iqlim tufayli yo‘qotish va zararlarni baholash bo‘yicha xalqaro markaz ta’sis etish haqidagi taklifi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu, o‘z navbatida, rivojlanayotgan mamlakatlar duch kelayotgan iqlim xatarlarini tanqidiy tahlil va moliyaviy baholash uchun yetakchi davlatlar, ko‘p tomonlama institutlar va konvensiyalarning texnik va moliyaviy ko‘magini kengaytirishga turtki beradi.

Iqlim o‘zgarishlaridan zarar ko‘rayotgan shahri azim va shaharlarning barqaror rivojlanishi, yashash uchun qulay sharoitlar yaratish sohasida tajriba va bilim, eng yaxshi amaliyotlar transferi uchun Jahon iqlim poytaxtlari alyansini tashkil etish hamda uning birinchi forumini Toshkentda o‘tkazish tashabbusi ham e’tiborga molikdir. Bu esa ekologik barqarorlikni ta’minlash, aholining qulay tabiiy muhitda hayot kechirishi uchun barcha zarur shart-sharoitni yaratish, ekologik vaziyatni yaxshilash va qulay ekologik holatni barqaror saqlashga xizmat qiladi.

Sammitda ilgari surilgan taklif va tashabbuslar O‘zbekistonning “yashil” o‘sish va rivojlanishga sodiqligini, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha sa’y-harakatlarni birlashtirishga tayyorligi hamda BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hadli konvensiyasi, Kioto protokoli va Parij kelishuvi maqsadlariga erishish borasida o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni to‘liq bajarishidan yaqqol dalolat beradi. Ayni vaqtda nafaqat mamlakatimiz va mintaqamiz, balki butun dunyoda global tusdagi dolzarb muammolarni bartaraf etish, ekologik xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash, iqlim o‘zgarishlarining oldini olish va unga moslashish imkonini beradi.

Xayrullo G‘AFFOROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosari.

DUNYO E’TIBORIDAGI TASHABBUSLAR

Yaqin Sharqda tinchlik, barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi

O‘zbekiston xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan qurolli to‘qnashuvlarga nisbatan doimo tinchlikparvar va neytral pozitsiyani saqlashga intilib, mojarolarni tinch va murosali muloqot orqali hal qilish tashabbusini ilgari surib kelmoqda. Tinchlikparvarlik, o‘zaro manfaatli hamkorlik va xalqaro xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan bu pozitsiya har qanday mojaroda, asosan, diplomatik yo‘llar orqali yechim topish maqsadini o‘zida mujassam qilgani bilan muhim ahamiyatga ega. Bu mamlakatimizning tashqi siyosatida belgilangan ochiqlik va do‘stona aloqalar tamoyillariga mos jihat hisoblanadi. Shu orqali O‘zbekiston nafaqat o‘z mintaqasida, balki keng xalqaro maydonda ham barqarorlikka xizmat qiladigan kuch sifatida tanilib bormoqda.

Kuni kecha Saudiya Arabistonida G‘azo va Livandagi vaziyatning keskinlashuvi hamda Yaqin Sharqdagi mojaroga tez fursatda yechim topish choralarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan navbatdan tashqari arab-islom sammiti bo‘lib o‘tdi.

Uning asosiy maqsadi, avvalo, Yaqin Sharq mintaqasida barqarorlik va tinchlikni ta’minlashdir. Shu bois ishtirokchilar tomonidan Falastin – Isroil mojarosini siyosiy va diplomatik yo‘l bilan hal qilish tashabbuslari qo‘llab-quvvatlandi.

Shuningdek, Yaqin Sharqdagi mojaro oqibatida jabr ko‘rayotgan aholiga yordam ko‘rsatish hamda ularga zarur gumanitar ko‘mak yetkazish uchun xalqaro miqyosda yordamni kuchaytirish masalasi bo‘yicha muhokamalar o‘tkazildi. Bu, ayniqsa, G‘azo sektori va Livan hududida qiyinchiliklarga duch kelayotgan aholining ehtiyojini qondirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, mojarolarga qarshi umumiy pozitsiya va birdamlikni ta’minlash orqali musulmon davlatlarining global siyosiy maydonda ta’sirini oshirish maqsad qilingan.

Sammit ishtirokchilari xalqaro hamjamiyatni bu mojaroga nisbatan teng va adolatli yondashishga undash hamda ikki xil standartlarga qarshi turishni taklif qilib, bu orqali global xavfsizlikka tahdidlarni kamaytirish mumkinligi qayd etildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ushbu anjumandagi ishtiroki va nutqi, avvalo, O‘zbekistonning barqarorlik va tinchlikni qo‘llab-quvvatlashdagi qat’iy pozitsiyasini ko‘rsatadi. Shu jihatdan O‘zbekiston ushbu hududda tinch va xavfsiz muhitni yaratish tarafdori bo‘lib kelmoqda.

Sammitda O‘zbekiston islom dunyosi bilan hamjihatlikda Yaqin Sharq muammolarini hal qilish va mintaqa xalqlarining xavfsiz yashash huquqini qo‘llab-quvvatladi. Xususan,



davlatimiz rahbari o‘z nutqida mazkur ko‘p yillik nizoni hal etish, xalqlar o‘rtasida tinchlik o‘rnatish, gumanitar yordam ko‘rsatish, noyob tarixiy-madaniy yodgorliklarning daxlsizligini ta’minlash hamda ularni beshikast saqlab qolish masalalari bo‘yicha aniq tashabbuslarni ilgari surdi. Unda O‘zbekistonning xalqaro maydondagi roli, mintaqaviy tinchlik va xavfsizlikka qaratilgan pozitsiyasi ko‘rsatib berildi. Bu ushbu masalalarga amaliy yondashuv va siyosiy hamkorlik orqali O‘zbekiston butun musulmon dunyosining birligini ta’minlashga intilayotganini ifoda qiladi. O‘z navbatida, bu galgi sammitda ham O‘zbekiston tinchlikka erishish yo‘lida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish loyihalariga alohida e’tibor qaratdi.

Prezidentimizning arab-islom sammitidagi ishtiroki O‘zbekistonning mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashdagi faol tashabbuslarini yana bir bor tasdiqlaydi. Yaqin Sharqdagi ijtimoiy va siyosiy tanglikka hal etuvchi diplomatik yechimlar ishlab chiqishga qaratilgan sa’y-harakatlar doirasida O‘zbekiston tinchlik va xavfsizlikning asosiy omillaridan biri sifatida mintaqa manfaatlarini himoyalashni maqsad qilgan. Bu esa mamlakatimizning xalqaro siyosatdagi nufuzini oshiradi va uzoq muddatli barqarorlikka zamin yaratadi.

Mamlakatimiz umumiy aholisi taxminan 1,9 milliard kishini tashkil etuvchi 57 a’zo davlatni birlashtirgan Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa mintaqaviy idoralar orqali jarayonda faol ishtirok etib, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka hissa qo‘shib kelmoqda. Bu kabi xalqaro anjumanlar qatnashchilarga nafaqat ziddiyatlarni bartaraf qilish yo‘llarini muhokama etish, balki islom dunyosining yagona va kuchli pozitsiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Alohida qayd etish joizki, ushbu nufuzli xalqaro tuzilma hozirgi zamon xatarlari sharoitida islom qadriyatlarini asrab-avaylash, musulmon xalqlari o‘rtasida hamjihatlik va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunga kelib IHT mamlakatlari jami yalpi ichki mahsuloti 7 trillion AQSh dollariga yaqinlashib, global iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil etadi.

O‘zbekiston IHTga 1996-yilda a’zo bo‘lganidan buyon tashkilot bilan savdo-iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorlik izchil rivojlanib bormoqda. Amaliy hamkorlik natijasida mamlakatimiz ilgari surayotgan loyiha va dasturlar har tomonlama qo‘llab-quvvatlanib, IHT mamlakatlari turizm vazirlari tomonidan Xiva shahri 2024-yilda “Islom dunyosining turizm poytaxti” deb e’lon qilindi.

Bilamizki, Islom hamkorlik tashkiloti Yaqin Sharqdagi nizolarga, ayniqsa, Falastin – Isroil mojarosiga yechim topishda muhim rol o‘ynaydi. IHTning vazifasi, avvalo, musulmon davlatlarini umumiy manfaat va qadriyatlar asosida birlashtirishdir. U BMT kabi global tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, xalqaro maydonda musulmon davlatlarining pozitsiyasini ifodalaydi va nizolarni tinchlik yo‘li bilan hal etishni targ‘ib qiladi.

IHT doirasida Yaqin Sharqdagi vaziyat bo‘yicha maxsus yig‘ilish va sammitlar uyushtirilayotgani, ularda mojaroni siyosiy va diplomatik yo‘l bilan hal etish takliflari muhokama qilinayotgani fikrimiz isbotidir. IHT davlatlari Falastin xalqining mustaqillik va huquqlari uchun ovoz beradi, ikki davlat yechimini qo‘llab-quvvatlaydi va xalqaro rezolyutsiyalarning bajarilishini talab qiladi.

Mojarolar oqibatida jabr ko‘rgan aholiga yordam ko‘rsatish, oziq-ovqat, tibbiy vositalar va boshqa gumanitar ko‘maklar yetkazib berishda ham tashkilotning roli katta. Bu yordam xalqaro hamjamiyatning e’tiborini qaratishga yordam beradi va mintaqadagi insonparvarlik inqirozlarini yengillashtirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Umuman olganda, Yaqin Sharq mojarosini tinch yo‘l bilan hal etish ko‘p qirrali yondashuv va xalqaro hamkorlikni talab qiladi. Mojaroga yechim sifatida taklif etilgan eng asosiy variantlar va yondashuvlar quyidagilardan iborat:

ikki davlat yechimi xalqaro hamjamiyat va BMT tomonidan eng ko‘p qo‘llab-quvvatlanadi. Unga ko‘ra 1967-yildagi chegaralar asosida, poytaxti Sharqiy Quddus bo‘lgan mustaqil Falastin davlati tashkil qilinishi taklif etiladi. Ikki davlat yechimi orqali Falastin va Isroil o‘ziga tegishli hududlarda suverenitetga ega bo‘ladi, bu esa tinchlik o‘rnatishning asosiy kafolati sifatida qaraladi.

Bu, o‘z navbatida, Isroil va Falastin rahbarlari o‘rtasidagi bevosita muloqot va muzokaralarni talab qiladi. Muzokaralarda chegara, Quddusning maqomi, qochqinlar huquqlari va xavfsizlik kabi muhim masalalarni hal etish ko‘zda tutilgan bo‘lib, xalqaro tashkilotlar, xususan, BMT, Yevropa Ittifoqi va Iordaniya kabi davlatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi;

mojaro hududida xalqaro xavfsizlik missiyalarini tashkil qilish orqali mojaroni to‘xtatish imkoniyatlari ham taklif etilmoqda. Bu usulda BMT yoki boshqa xalqaro tashkilotlarning tinchlikparvar kuchlari o‘zaro ishonchni mustahkamlash va tinchlik jarayonini kuzatish vazifasini bajarishi mumkin. Xususan, G‘azo hududida xavfsiz gumanitar yo‘laklarni ochish va aholiga zarur yordam ko‘rsatish uchun xalqaro kuchlarning ishtiroki zarur, deb hisoblanmoqda;

arab davlatlari, xususan, Saudiya Arabistoni va Misr kabi davlatlar Isroil bilan muloqotda Falastin manfaatlarini himoya qilish uchun diplomatik tashabbuslarni davom ettirishni tavsiya qilmoqda. Bu jarayonda Arab davlatlari Isroil va Falastin o‘rtasidagi mojaroni to‘xtatish uchun vositachilik qilish orqali muhim rol o‘ynashi mumkin;

Falastin aholisining iqtisodiy va ijtimoiy muammolarini hal etish orqali mojaroni yumshatishga urinish ham amaliy yechimlardan biri hisoblanadi. Bunga xalqaro donorlar va mintaqaviy tashkilotlar tomonidan yordam ko‘rsatish, infratuzilmani rivojlantirish va ta’limga e’tibor qaratish kiritiladi. Bu yechimlar Yaqin Sharqda uzoq muddatli tinchlik va barqarorlikni ta’minlash uchun imkoniyat yaratadi. Lekin mojaroni hal qilish yo‘lida har ikki tomonning ham konstruktiv va bir-biriga nisbatan bag‘rikeng yondashuvi, xalqaro hamjamiyatning esa uzluksiz yordam va nazorati talab etiladi.

Nodir JUMAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Samarqandda milliy qadriyatlarimiz targ‘ibotiga qaratilgan “Xalq ijodiyoti karvoni” loyihasiga start berildi.

IJTIMOIY SOHA FAOLLARI – SHOHSUPADA

Kecha Oliy Majlis Senati tomonidan o‘tkazilgan “Eng yaxshi ijtimoiy tashabbus” ko‘rik-tanlovining respublika bosqichi g‘oliblarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tanlov

Qayd etilganidek, ushbu tanlovdan ko‘zlangan maqsad davlat idoralari, nodavlat sektor va fuqarolar tomonidan ijtimoiy tashabbuslarni dadil ilgari surish, amalga oshirilishini faollashtirish va rag‘batlantirishdan iborat.

Ko‘rik-tanlovni tashkil etish va uni o‘tkazish bo‘yicha respublika komissiyasi tomonidan 12 ta hududda yuqori natijalarga erishgan, jamiyat rivoji yo‘lida tashabbus ko‘rsatgan 50 ishtirokchi orasidan 5 ta nominatsiya bo‘yicha 1, 2, 3-o‘rinlar egalari aniqlandi.

Xususan, tanlov natijalariga ko‘ra “Eng yaxshi ijtimoiy tashabbuskor tadbirkorlik subyekti” nominatsiyasida 1-o‘rinni Paxtakor tumanidagi “Semurg‘” urug‘chilik klasteri (Jizzax viloyati), 2-o‘rinni Buxoro shahridagi “Axmedov Avtogaz Service” mas’uliyati cheklangan jamiyati va 3-o‘rinni Bekobod shahridagi “Hoji-Zuhra ona” oilaviy korxonasi (Toshkent viloyati) egalladi.

“Eng yaxshi ijtimoiy tashabbuskor nodavlat notijorat tashkiloti” nominatsiyasida 1-o‘rinni Buxoro tumani nogironlar jamiyati, 2-o‘rinni Jizzax viloyati “Istiqbolli avlod” ijtimoiy axborot markazi va 3-o‘rinni Navoiy viloyati “Lider” ayollar va bolalar markazi qo‘lga kiritdi.

“Eng yaxshi ijtimoiy tashabbuskor davlat boshqaruv organi” nominatsiyasida 1-o‘rinni Nukus shahridagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi, 2-o‘rinni Samarqand viloyati Bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi va 3-o‘rinni Yoshlar ishlar agentligi Boyovut tumani bo‘limi (Sirdaryo viloyati) egalladi.

“Eng yaxshi ijtimoiy tashabbuskor fuqaro” nominatsiyasi bo‘yicha 1-o‘rin Adhamjon Jo‘rayevga (Sirdaryo viloyati), 2-o‘rin Ravshanbek Sobirovga (Xorazm viloyati) va 3-o‘rin Muhammadali Qambarovga (Namangan viloyati) nasib etdi.

Bundan tashqari, “Eng yaxshi ijtimoiy tashabbuskor hokimlik” nominatsiyasida 1-o‘rinni Samarqand viloyati Ishtixon tumani hokimligi, 2-o‘rinni Andijon viloyati Bo‘ston tumani hokimligi, 3-o‘rinni Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar hokimligi egalladi.

Ko‘rik-tanlov g‘oliblari esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandi.

“Xalq so‘zi”

BYUDJET INSON MANFAATLARINI KO‘ZLAYDI

Avval xabar berilganidek, shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishlar bo‘lib o‘tmoqda.

Qonunchilik palatasida



Kecha Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi tomonidan uyushtirilgan yig‘ilishda qonun loyihasi sohalar bo‘yicha atroflicha muhokama qilindi.

Sog‘liqni saqlash sohasiga kelgusi yilga mo‘ljallangan Davlat byudjeti loyihasida 41,3 trln. so‘m mablag‘ yo‘naltirilishi ko‘zda tutilgan. Ushbu mablag‘lar Davlat byudjeti jami xarajatlarining 12 foizini tashkil etishi deputatlar e’tiborida bo‘ldi.

Sohaga ajratilgan mablag‘lar 2024-yildagiga nisbatan 6,8 trln. so‘mga yoki 20 foizga ko‘pligi, sog‘liqni saqlash sohasidagi davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun 2025-yilda 2,8 trln. so‘m, ya’ni 2024-yildagidan 19 foizga ko‘p mablag‘lar ajratilishi nazarda tutilgani xalq vakillari tomonidan ijobiy baholandi.

Muhokamada deputatlar dori vositalari, tibbiy buyumlar, vaksina va bakpreparatlar xaridiga ajratilayotgan mablag‘lar bo‘yicha o‘z fikr hamda munosabatlarini bildirdi.

Shu bilan birga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlari tibbiyot muassasalari tibbiy sug‘urta tizimiga o‘tkazilishi bilan bog‘liq masalalar, xususan, Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi faoliyati bo‘yicha takliflar bildirildi.

Deputatlar 2025-yilda Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga ajratilishi rejalashtirilgan byudjet mablag‘lari bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot taqdim etilishini taklif qildi.

Ayni paytda qonun loyihasi konsepsiyasi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishlar davom etmoqda.

“Xalq so‘zi”.

“NAVOIYAZOT”

RIVOJLANISHNING YANGI BOSQICHIDA QUDRATLI KORXONAGA AYLANMOQDA

Bugun milliy iqtisodiyotimizning barcha ustuvor tarmog‘ida davlatimiz rahbari tomonidan belgilangan investitsiyaviy dasturlar, innovatsion loyihalar, texnologik yangilanishlar, eng avvalo, mamlakatimiz qudratini yanada oshirish, xalqimiz farovonligini ta’minlash, ertangi kunga ishonchini mustahkamlashga qaratilgan. Mazkur islohotlar natijalarini “Navoiyazot” AJ faoliyati misolida ham yaqqol kuzatish mumkin.

O‘tgan asrning 60-yillarida bunyod etilgan ushbu korxona Rossiya, Chexiya, Ruminiya kabi mamlakatlarning mashinasozlik zavodlarida ishlab chiqilgan, o‘z zamonasining ilg‘or dastgohlari bilan jihozlangan edi. Uning qad rostlashida sobiq ittifoq hududida yuqori nufuzga ega o‘ndan ortiq loyihalashtirish tashkilotlarining qatnashganligi ham “Navoiyazot”ning mintaqaviy ahamiyatini ifoda etadi.

Yangi quvvatlar

ISHONCHNING QAYTISHI

Korxona mintaqadagi agrar soha va konchilik sanoati uchun qanchalik muhim bo‘lmasin, chiqindi gazlari bilan atmosfera va atrof-muhit tozaligiga, shu atrofdagi aholi salomatligiga tahdid solib kelardi. Xususan, 2008-yildagi tadqiqotlar atmosferaga tashlanayotgan 50 turdagi ifloslantiruvchi moddalarning uchdan ikki qismi aynan shu korxona hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatdi, bunda ekspluatatsiyadagi uskunalarning texnik va ma’nan eskirganligining ham o‘z o‘rni bor.

Qolaversa, ushbu dastgohlarning 87 foizi o‘z xizmat muddatlarini o‘tab bo‘lganligi hamda texnologik jarayonlarda katta energiya talab etganligi mahsulot tannarxini oshirib, nainki tashqi, balki ichki bozorda ham o‘z pozitsiyalarini boy bera boshladi. Mahsulotlarning 85 foizini tashkil etuvchi mineral o‘g‘itlar omborlarda turib qolar, korxona ishchi-xizmatchilari esa 6-7 oylab maosh ololmasdi. Natijada yuqori malakaga ega bo‘lgan texnolog-mutaxassislar turli sohalarga o‘tib keta boshlashdi.

– Ayniqsa, 2015-yil korxonamiz uchun nihoyatda qiyin kechdi, – deydi korxona faxriysi Tolib Saidov. – Nuqul omborga ishlardik, oylik maosh yo‘q. “Zavod yopilarmish”, degan gap-so‘zlar tarqab, odamlarni ertaga nima bo‘larkan degan tahlika bosgan edi.

O‘sha kezlarda mamlakatimiz Bosh vaziri korxonamizga kelib, “Navoiyazot”ning yurtimiz iqtisodiyotida tutgan o‘rnini alohida ta’kidladi. Barcha kuch korxonani nafaqat saqlab qolish, balki texnologik jihatdan yangilashga safarbar etilishini va uning aniq iqtisodiy asoslarini tushuntirib, vazifalar belgiladi. Odamlarga ishonch qaytdi.


TANLASH IMKONIYATI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Navoiy viloyatiga dastlabki tashrifi chog‘idayoq “Navoiyazot” AJda modernizatsiya ishlarini jadallashtirish, texnik va texnologik yangilashni olis istiqbolni inobatga olgan holda uddalash lozimligini ta’kidlagan edi. Shu asosda 2017-yil 24-iyulda “Navoiyazot” AJda investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilinib, keng ko‘lamdagi imtiyozlar asosida uchta samarador loyihani muvaffaqiyatli bajarish choralari belgilandi.

– Korxonamizda yiliga 100 ming tonna polivinilxlorid (PVX), 75 ming tonna kaustik soda, 300 ming tonna metanol ishlab chiqarish quvvatlariga ega yangi majmua o‘z faoliyatini boshladi, – deydi “Navoiyazot” AJ boshqaruvi raisi Farruh Samadov. – Azot kislotasi tayyorlash bo‘yicha eski 1 va 2-navbatlar ekspluatatsiyadan chiqarilib, texnik iqtisodiy asoslarga muvofiq umumiy qiymati 216,6 million AQSh dollariga teng ishlab chiqarish obyekti Shveysariyaning “CASALE SA” kompaniyasi bilan hamkorlikda bunyod etildi. Bu yerda yiliga 500 ming tonna azot kislotasi tayyorlanib, eski texnologiyaga nisbatan energiya sarfi 18-martaga qisqartirildi hamda 122 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

Shuningdek, korxonada bir vaqtning o‘zida umumiy qiymati 1,5 mlrd. AQSh dollari bo‘lgan uchta zamonaviy kimyo majmuasi ishga tushirildi. Xususan, umumiy qiymati 985,7 mln. AQSh dollaridan ziyod bo‘lgan ammiak va karbamid ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan ushbu majmualarning ishga tushirilishi natijasida aksiyadorlik jamiyatining energiya sarfi yuqori bo‘lgan 1 va 2-ammiak sexlari foydalanishdan chiqarildi.

Yaponiyaning “Mitsubishi Heavy Industries, Ltd”, “Mitsubishi Corporation” kompaniyalari konsorsiumi ko‘magida barpo etilgan ushbu majmuada 491 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Uning foydalanishga topshirilishi natijasida respublika ichki bozorining azotli o‘g‘itlarga bo‘lgan talabi to‘liq qanoatlantirilib, ishlab chiqarilgan karbamid mahsulotini Markaziy Osiyo davlatlari hamda Afg‘oniston, Turkiya, Ozarbayjon, Ukraina, Gruziyaga eksportga yo‘naltirish imkoniyatlari yanada oshdi.



– Ushbu loyihalar “Navoiyazot”da mahsulot ishlab chiqarish hajmini uch barobar oshirish bilan birga, zamonaviy majmualar 60 yil avval qurilgan eski quvvatlar o‘rnini to‘liq egalladi, – deya davom etadi F. Samadov. – Xususan, yiliga 120 ming tonna polivinilxlorid ishlab chiqarish quvvatiga ega loyihaning II bosqichi to‘liq ishga tushirilishi korxonamizda bu yo‘nalishdagi quvvatni yiliga 100 ming tonnadan 220 ming tonnaga, kaustik sodani esa 75 ming tonnadan 165 ming tonnaga yetkazish, elektrotexnika, qurilish materiallari sanoati, maishiy kimyo va boshqa sohalarda talab yuqori bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonini berdi.

Ta’kidlash joiz, respublikamiz kimyo sanoati ilgari, asosan, qishloq xo‘jaligi uchun mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan bo‘lib, uning ulushi tarmoqda qariyb 80 foizni tashkil etar edi. Bugungi kunda zamonaviy polimerlar tayyorlash hisobiga mineral o‘g‘itlar ulushi 10 foizga qisqardi, boshqa sohalar uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi 6-marta, tovar mahsulotlari hajmi esa 4 karra oshib, eksport geografiyasi kun sayin kengaymoqda.

Eng muhimi, loyihalarni amalga oshirishda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining tegishli xulosalari olinib, atmosferaga chiqariladigan chiqindilar bo‘yicha me’yorlar belgilangan. Italiya, Daniya, Shveysariya, Yaponiya, Xitoy va boshqa bir qator ilg‘or mamlakatlarda ishlab chiqarilgan ushbu dastgohlar atrof-muhitga tashlanayotgan zararli chiqindilar va moddalarni qat’iy nazorat qilib, me’yordan zarracha og‘ishda ogohlantirish signalini beradi.

– Ammiak va karbamid olishning 60-yillar texnologiyasida ham ishlaganman, – deydi mazkur ishlab chiqarish majmuasi boshlig‘i Husen Saidov. – Har ikki texnologiya prinsip jihatdan bir xil bo‘lsa ham ularda inson omiliga e’tibor tubdan farq qiladi. Ya’ni yapon texnologiyasida, eng avvalo, ishchi-mutaxassislarning xavfsizligiga e’tibor qaratilgan.

Ammiak va karbamid ishlab chiqarishda minglab daraja issiqlik va yuzlab atmosfera bosimidan foydalanamiz. Eski texnologiyada biror xavf yoki avariya holati tug‘ilsa, jarayon bevosita mutaxassis ishtirokida to‘xtatilar edi. Yangi majmuada esa bu avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Ochig‘i, eski texnologiyada yurak hovuchlab ishlardik. Oliygohlar bitiruvchilari bitiruv amaliyotida sharoitni ko‘rib, korxonaga qaytib kelmasdi. Bugun yangi texnologiya bo‘yicha har bir ish o‘rniga besh-olti kishi talabgor bo‘lyapti.

> ***“Ta’kidlash joiz, respublikamiz kimyo sanoati ilgari, asosan, qishloq xo‘jaligi uchun mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan bo‘lib, uning ulushi tarmoqda qariyb 80 foizni tashkil etar edi. Bugungi kunda zamonaviy polimerlar tayyorlash hisobiga mineral o‘g‘itlar ulushi 10 foizga qisqardi, boshqa sohalar uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi 6-marta, tovar mahsulotlari hajmi esa 4 karra oshib, eksport geografiyasi kun sayin kengaymoqda.”***



YUKSALISH YO‘LI

Bugun mamlakatimiz kimyo sanoati mahsulotlarining 70 dan oshiq turi, ammiak, karbamid va selitraning 50 foizga yaqini, PVX va sianid natriy aynan “Navoiyazot” yo‘l-kommunikatsiya tarmoqlaridan iste’molchilarga jo‘natilmoqda. Korxonaning yillik daromadi 2020-yildagiga nisbatan



qariyb uch baravar oshib, 5,9 trln. so‘mni tashkil etadi. Eng muhimi, 1 mln. so‘m qiymatdagi mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan energiya miqdori o‘tgan davr mobaynida tabiiy gazda 17, elektr energiyasida 18 foiz kamaytirilib, jami ishlab chiqarish hajmi esa 8 foiz oshishiga erishildi. Eksport hajmi uch yarim, byudjetga to‘lovlar to‘rt baravarga ortdi. Korxonaning nufuzi oshib, shu yil 23-oktabr kuni “Fitch Ratings” xalqaro reyting agentligining xalqaro kredit reytingini qo‘lga kiritdi.

– Bugun ishga tushirilgan texnologiyalarimiz tufayli Yevropa standartlariga to‘liq javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarmoqdamiz, – deydi korxonaning investitsiya va loyihalar boshqarmasi boshlig‘i Ramil Gilvanov. – Natijada Avstriya, Vengriya, MDH va Osiyoning bir qator mamlakatlariga mahsulot eksport qilmoqdamiz. Bularning hammasi korxonamizda qo‘shimcha qiymat yaratish, hisobimizda mablag‘ paydo bo‘lishi, ishchilar bilan vaqtida hisob-kitob qilish imkoniyatini yuzaga keltirdi.

Kimyo sanoati yuksak intellektga tayanadigan tarmoq. Jamoaning intellektual salohiyati ushbu soha ravnaqida xomashyo resurslari ko‘lamidan ham muhimroq. Mamlakatimiz Prezidenti navoiylik kimyogarlar oldiga kimyo texnologik klasteri, kimyo texnoparki, xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, mahalliylashtirish va importni qisqartirish, turdosh korxonalarni “shatakka olish” vazifalarini qo‘yar ekan, eng avvalo, korxonaning tajribali mutaxassislari hamda ilmiy salohiyatini inobatga olganligi, shubhasiz. Mazkur vazifalar ijrosining har biriga to‘xtalish imkoni chegaralanganligi bois ularning ayrimlariga e’tibor qaratmoqchimiz. Xususan, mahalliylashtirish va importni qisqartirish yo‘nalishida korxona o‘z importi hajmini 60 foizga, boshqa tarmoq korxonalarida esa qariyb 280 mln. AQSh dollariga qisqartirdi. Shuningdek, yaqin istiqboldagi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish hisobidan korxonada faoliyat yuritayotgan bug‘ ishlab chiqarish bo‘yicha 8 ta sex faoliyati to‘xtatilib, elektr energiyada xarajatlar 50 foizga qisqartirilsa, bug‘da nolga tushiriladi.

– Mamlakatimizdagi “shatakka oluvchi” o‘ndan ortiq korxonalar bilan kooperatsiya yo‘li orqali zarur materiallar hamda ehtiyot qismlar ishlab chiqarilishi ta’minlanmoqda, – deydi korxona boshqaruvi raisining birinchi o‘rinbosari Alisher Mirzayev. – Buning natijasida kimyo yo‘nalishida amalga oshirilayotgan yirik loyihalar doirasida “mahalliy kontent” yaratilib, qurilish ishlari yuz foiz ular tomonidan bajarilsa, loyihalashtirish va asbob-uskunalar tayyorlash ishlari uch baravar oshiriladi.

Bugun “Navoiyazot” AJ hududini ulkan qurilish maydoniga qiyoslash mumkin. Ishlab chiqarish bilan bog‘liq o‘nlab umidbaxsh loyihalar qatorida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida keng ko‘lamli bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari uddalanib, birgina joriy yilning o‘zida korxona atrofida 132 ming tup daraxt niholi o‘tqazildi. Bu o‘tgan yildagiga nisbatan ikki yarim hissa ko‘p, demakdir. Darvoqe, so‘z atrof-muhit musaffoligi xususida ketar ekan, bugun “Navoiyazot”da atmosferaga tashlanayotgan havoni ifloslantiruvchi tashlamalar miqdori 1021,6 ming tonnani tashkil etib, 2022-yildayoq u ruxsat etilgan me’yorga keltirilganini ta’kidlash joiz. Albatta, bu yangilanishlarning barchasi kimyogarlar ruhiyatida o‘z aksini topib, ular arafadagi korxona yubileyini xush kayfiyatda kutib olishmoqda.

Temur ESHBOYEV
(“Xalq so‘zi”).

Shu yilning 15-noyabridan 15-dekabriga qadar mamlakatimizda “Yong‘in xavfsizligi oyligi” o‘tkaziladi.

EL-YURT SALOMATLIGI – JAMIYATNING BEBAHO BOYLIGI

Yangi O‘zbekistonda xalq salomatligini mustahkamlash masalasiga inson qadri va manfaatlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayni shu maqsadda keyingi yillarda sohaning moddiy-texnika bazasi, kadrlar salohiyati mustahkamlanmoqda. Tizimga ilg‘or davolash va diagnostika usullari, innovatsion texnologiyalar keng tatbiq etilmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Prezidentimiz sog‘liqni saqlash sohasi xodimlariga tabrigida ta’kidlaganidek, el-yurt salomatligi – jamiyatning bebaho boyligidir. Tinchlik va sog‘liq bo‘lgan joyda, albatta, o‘sish va o‘zgarish, baxtli va farovon hayot bo‘ladi.

Nuqtai nazar

Eng muhimi, mana shunday sa’y-harakatlar tufayli birlamchi va malakali tibbiy xizmatlar aholining keng qatlamlariga kirib bormoqda. Buning tasdig‘ini o‘tgan yilning o‘zida joylarda 22 ta oilaviy poliklinika, 93 ta oilaviy shifokor punkti va 394 ta mahalla tibbiyot punkti tashkil etilib, birlamchi tibbiy xizmatlar 2 million 100 ming nafardan ziyod aholiga yaqinlashtirilgani misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Jonkuyar shifokorlar, yuqori malakali tibbiyot mutaxassislari, hamshiralarning mashaqqatli mehnati tufayli yuqori texnologik jarrohlik operatsiyalari nafaqat poytaxtimiz va viloyatlar markazlarida, balki tumanlarda ham muvaffaqiyatli o‘tkazilayotir va minglab bemorlar o‘z dardiga shifo topmoqda. Vaholanki, bundan bir necha yil oldin yurtdoshlarimiz murakkab bo‘lmagan operatsiyalar uchun ham xorijga qatnar, buning uchun ortiqcha vaqt va xarajat talab qilinardi.

Milliy genofondimizni asrash yo‘lida

Albatta, salomatlik – eng ulug‘ ne’mat. Xastalik to‘shagida yotgan odam esa har yerdan najot izlab qoladi. Ana shu paytda unga yordam qo‘lini cho‘zish eng katta yaxshilik, eng ulkan savoblardan sanaladi. Shu ma’noda, yangi O‘zbekistonda ona va bola salomatligini himoya qilish, milliy genofondimizni asrash, yosh avlodni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalashga ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralayotgani quvonarli hol. Chunki bu yurtimizdagi har bir oila, umuman, butun jamiyatning baxti va kelajagi bilan bog‘liq g‘oyat muhim masaladir.

Davlatimiz rahbari Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tashkil etilganining 50 yilligi munosabati bilan soha xodimlariga yo‘llagan tabrigida ta’kidlaganidek, o‘tgan yili tarixiy an’analarga ega bo‘lgan uchta muassasa negizida mazkur markaz ochilgan edi. Natijada mamlakatimizda 9 million 200 ming nafardan ziyod tug‘ish yoshidagi ayollarga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish hamda homila salomatligini nazorat qilib borishning yaxlit va vertikal boshqarish tizimi yaratildi, takomillashtirilgan tibbiy profilaktika hamda patronaj xizmatlari yo‘lga qo‘yildi.

Bugungi kunda markaz o‘z tarkibida 14 ta hududiy filial, 46 ta tumanlararo perinatal markaz, 170 dan ortiq tug‘uruq komplekslari va 209 ta “Ayollar maslahatxonasi”ni birlashtirgani uning ulkan salohiyatidan dalolat beradi. Bu esa ana shu muassasalar ishini samarali muvofiqlashtirib, birlamchi tizimda patronaj xizmatini sifatli yo‘lga qo‘yish, homilador ayollarni skriningdan o‘tkazib, ularning salomatligini muntazam tahlil qilib borish, qisqacha aytganda, xavfsiz onalikni ta’minlash imkonini bermoqda.

Eng so‘nggi texnologiyalar asosida

Shu o‘rinda tibbiyotning gematologiya va onkologiya yo‘nalishida juda chuqur o‘zgarishlar yuz berayotganini ta’kidlash joiz. Davlatimiz rahbari 2021-yilda Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining eski binosini borib ko‘rgan, sohada sharoitlarni yaxshilash bo‘yicha topshiriqlar bergan edi. Ko‘p o‘tmay, “Aholiga gematologiya va onkologiya xizmatlarini ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilindi.

Sohada davolash samaradorligini oshirish uchun ko‘p ishlar qilinayotir. Xususan, Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazi alohida muassasa sifatida ajratildi. Onkologik shifoxonalar uchun qo‘shimcha 22 ta nur terapiyasi uskunasi olib kelindi. Kimyo terapiyasi vositalariga



ajratilayotgan mablag‘ 11 barobar oshirilib, 13 million dollarga yetkazildi. 250 ga yaqin yangi tekshirish va davolash usullari viloyat hamda tuman darajasiga tushirildi.

Prezident qarorida Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi uchun yangi majmua qurilishi ham belgilangan edi. Uning loyihasi Janubiy Koreyaning shu sohadagi klinikalari tajribasi asosida ishlab chiqildi. Uch yil davomida puxta ish olib borilib, Toshkent tibbiyot

> ***“Mamlakatimizda so‘nggi yetti yilda sog‘liqni saqlash tizimiga ajratilayotgan mablag‘lar hajmi 5,9 trln. so‘mdan 33,5 trln. so‘mga, ya’ni 6 barobar oshirildi. Shifoxonalar zamonaviy jihozlanib, yangilari barpo etilmoqda. Tibbiyotni xalqqa yaqinlashtirish maqsadida joylarda skrining tekshiruvlari o‘tkazilmoqda.”***

akademiyasi yonidagi 5 gektardan ziyod maydonda zamonaviy shifoxona barpo etildi. Bu yerda shifokor va bemorlar uchun barcha kerakli sharoitlar inobatga olingan. Avvalgi shifoxona 370 o‘rinli bo‘lgan bo‘lsa, yangi markazda 650 ta statsionar va 80 ta kunduzgi o‘rinlar tashkil etildi. Shuningdek, bir kunda 500 nafar bemorning ambulator sharoitda davolanish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Markazda jahon standartlari asosida 17 ta yangi klinik bo‘lim, 18 ta jarrohlik xonasi, 42 ta reanimatsiya va intensiv terapiya xonalari tashkil etilgan. Ular dunyo tibbiyotida qo‘llanilayotgan eng so‘nggi texnikalar bilan jihozlandi. Masalan, “Siemens” kompaniyasining “Magnetom Altea” rusumli magnitli tomografi sun’iy intellektdan foydalanib, ish jarayonini avtomatlashtiradi. “Fuji” kompaniyasining “Senaria” kompyuter tomografi kam dozali nurlanish va yuqori sifatli tasvir bilan bexato tashxis qo‘yadi. Shuningdek, 128 va 256 o‘lchamli multispiral tomograflar juda yupqa kesimlarda eng kichik o‘smalarni ham aniqlash imkonini beradi. Asosiysi, bular avval qo‘llanilganidan 8 – 16 barobar kuchliligi bilan ajralib turadi.

Bunday zamonaviy texnikalarni ishlatish uchun yuzga yaqin mutaxassislar 8 ta xorijiy davlatda malaka oshirib qaytdi. Jarrohlik bo‘limida yiliga 6 mingta yuqori texnologik amaliyot o‘tkazish imkoniyati mavjud. Jumladan, juda dolzarb bo‘lgan suyak ko‘migi o‘zak hujayralari transplantatsiyasi yo‘lga qo‘yildi. Yangi uskunalar yordamida ko‘z, halqum va qizilo‘ngach qismi o‘smalarini kesmasdan olib tashlash mumkin. Qovuq o‘smalari kaminvaziv usulda bartaraf etilmoqda. Bularning samarasida bemorlar tezroq tuzalib, 3 – 5 kunda uyiga qaytishi mumkin.

Intensiv terapiya bo‘limida har bir yotoq o‘rni yurak monitorlari, o‘pkani sun’iy shamollatish moslamalari va boshqa zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan. Nur bilan davolash uchun ilk bor yadroviy tibbiyot bo‘limi ishga tushirilmoqda. Ambulator kimyo terapiya 72 nafar bemorga mo‘ljallangan. Yangi infuzomat uskunalari olib kelingani natijasida bu davo osonlashadi va tezlashadi.

Umuman, yangi uskunalar va sharoitlar natijasida markazda o‘sma kasalliklarini erta aniqlash hamda davolash samaradorligi bir necha barobar oshdi. Bu, pirovardida, o‘lim holatlarini kamaytirish, insonlarni sog‘aytirib, umrini uzaytirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar nimani ko‘rsatadi?

Mamlakatimizda so‘nggi yetti yilda sog‘liqni saqlash tizimiga ajratilayotgan mablag‘lar hajmi 5,9 trln. so‘mdan 33,5 trln. so‘mga, ya’ni 6 barobar oshirildi. Shifoxonalar zamonaviy jihozlanib, yangilari barpo etilmoqda. Tibbiyotni xalqqa yaqinlashtirish maqsadida joylarda skrining tekshiruvlari o‘tkazilmoqda.

Ammo bu sohada muammolar yo‘q, degani emas. Tahlillarga ko‘ra, aholi murojaatlarining 30 foizigina birlamchi bo‘g‘inda hal bo‘lyapti. Ayrim kasalliklar bo‘yicha davolash uslublari eskirgan, hamshiralarning ish doirasi keng emas. Shunga qaramay ko‘rilgan choralar tufayli gipertoniya, yurak ishemik va surunkali o‘pka xastaliklari, bronxial astma, qandli diabet, gepatit kabi eng ko‘p uchraydigan 7 ta kasallik guruhi bo‘yicha davolash standartlari xalqaro talablar asosida yangilandi. Bemorlarga odatiy tekshiruvlarni belgilash, dorisiz davolash kabi vazifalar shifokordan hamshiraga o‘tkazilyapti. Poliklinikalarda bemorlar harakati tartibga solinib, shifokorlar qabuliga navbat kutish vaqti kamaytirilmoqda.

Tibbiy sug‘urta doirasida davlat tomonidan aholiga bepul ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar va dori vositalarining kafolatlangan paketi joriy etiladi. Bemorlarni o‘zlari biriktirilgan oilaviy shifokorlar orqali tor soha mutaxassislariga yoki shifoxonalarga yo‘llash tizimi tashkil qilinadi. Bunda ushbu tartibga rioya qilingan holdagina bepul tibbiy xizmatlar ko‘rsatiladi. Aholiga kafolatlangan paket doirasida eng ko‘p uchraydigan kasalliklar bo‘yicha dori vositalari elektron retsept asosida dorixonalar orqali bepul beriladi.

E’tirof etish joiz, mamlakatimizda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida tibbiyot sohasida ham ulkan o‘zgarishlarni amalga oshirish reja qilingan. Jumladan, aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini 78 yoshga yetkazish, buning uchun tibbiyotga yo‘naltiriladigan mablag‘lar hajmini 2 barobar oshirish, onkologiya, yurak-qon tomir, diabet va nafas yo‘llari kasalliklari bo‘yicha erta o‘limni 2,5 barobar kamaytirish, O‘zbekistonni sil xastaligidan xoli mamlakatga aylantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Shuningdek, 350 ming nafar diabet va 1 million 500 ming nafar yurak-qon tomir kasalligi bilan og‘rigan bemorlarni davolash, tibbiy yordamga muhtoj aholining 70 foiz murojaatlarini birlamchi bo‘g‘inning o‘zida hal etish, bemorlarni gemodializ o‘rinlari bilan to‘liq qamrab olish bo‘yicha ham amaliy ishlar boshlangan.

Albatta, bir maqola doirasida tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan keng islohotlarni to‘liq qamrab olish imkoni yo‘q. Biroq keltirib o‘tilgan faktlarning o‘zi ham yurtimizda inson salomatligini asrashga qay darajada katta e’tibor qaratilayotgani haqida tasavvur hosil qilishga yetarli. Yaratilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish esa har birimizga bog‘liq.

Jasur RIZAYEV,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori,
tibbiyot fanlari doktori,
professor.

Reklama

“O‘zbekiston pochtasi” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi to‘g‘risida xabarnoma

HURMATLI AKSIYADORLAR!

“O‘zbekiston pochtasi” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi 2024-yil 5-dekabr kuni soat 11:00 da masofadan turib elektron ovoz berish tizimi **www.evote.uz** orqali o‘tkaziladi.

Aksiyadorlarni ro‘yxatga olish soat 09:00 dan 10:55 gacha amalga oshiriladi. Umumiy yig‘ilish o‘tkazilishi haqida xabar qilish uchun jamiyat aksiyadorlari reestri 2024-yil 8-noyabr holatiga va umumiy yig‘ilishda qatnashish uchun 2024-yil 29-noyabr holatiga tuziladi.

Jamiyatning elektron pochta manzili: info@poshta.uz

Yig‘ilish kun tartibi:

1. AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash;

2. “O‘zbekiston pochtasi” aksiyadorlik jamiyatining Kuzatuv kengashi a’zolarini rag‘batlantirish to‘g‘risida” Nizomga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida;

3. AJ Kuzatuv kengashining mustaqil a’zosiga to‘lanadigan asosiy va qo‘shimcha mukofot pullari miqdorini belgilash to‘g‘risida.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida qatnashish va ovoz berish uchun shaxsni tasdiqlovchi hujjat, aksiyadorlar vakillarida esa qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bo‘lishi lozim.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishda qatnashish va kun tartibidagi masalalar bo‘yicha masofadan turib ovoz berish uchun **id.gov.uz** da belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tishlari shart. Elektron ovoz berish **www.evote.uz** veb-sayti orqali amalga oshiriladi.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi bo‘yicha ma’lumot va hujjatlar bilan “O‘zbekiston pochtasi” AJ bosh ofisida ushbu e’lon berilgan sanadan boshlab yig‘ilish o‘tkaziladigan kunga qadar soat 10:00 dan 17:00 gacha yoki **www.evote.uz** veb-sayti orqali tanishish mumkin.

Ma’lumot uchun telefon:
71-232-00-33.

“O‘zbekiston pochtasi” AJ Kuzatuv kengashi.

YANGILIKLAR *xabarlar*

TAFSILOTLAR

Amir Temur haqida bitilgan eski qo‘lyozma topildi

Tojikistonda sohibqiron Amir Temurning hayoti va faoliyati haqida o‘zbek tilida bitilgan eng eski qo‘lyozma topildi.



Bu haqda Tojikiston milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori Badriddin Maqsudov ma’lum qildi.

Olimning aytishicha, “Manoqibi Amir Temur sohibqiron” deb nomlangan ushbu kitob buyuk bobokalonimiz haqida yozilgan va shu paytga qadar yetib kelgan turkiy qo‘lyozmalarning hozircha eng qadimiysi bo‘lishi mumkin.

Qand kasalligini davolashning dolzarb masalalari muhokamasi

Poytaxtimizda akademik Yo. To‘raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tomonidan “To‘raqulov o‘qishlari” nomli ilmiy-amaliy xalqaro anjuman tashkil etildi.



Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya, Polsha, Gruziya, Turkiya, Ozarbayjon, Belarus, Qozog‘iston kabi qator davlatlardan yetakchi olimlar, soha mutaxassislari va ekspertlar qatnashgan ushbu tadbirda endokrinologiya yo‘nalishida fan hamda texnikaning eng so‘nggi yutuqlari, sohada olib borilgan yangi tadqiqotlar natijalari, innovatsion diagnostika hamda davolash usullari, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, mavjud muammolar yuzasidan fikr almashildi.

Ayrim tadbirkorlarga to‘langan solig‘ining bir qismi qaytarib beriladi

Hukumatning tegishli qarori bilan Umumiy ovqatlanish, turoperatorlik va mehmonxona xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga byudjetga to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘ining bir qismini qaytarish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik Nizom tasdiqlandi.

Nizomga ko‘ra 2024-yil 1-oktabrdan boshlab turoperatorlik va mehmonxona xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga byudjetga to‘langan soliqning 20 foizi qaytariladi.

Mahallalarda xatlov boshlandi

Adliya vazirligi “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi Qonun ijrosini tashkil qilish yuzasidan matbuot anjumani o‘tkazdi.



Ta’kidlangandek, ushbu qonun shu yil 8-noyabrdan kuchga kirdi. Hozirda 2024-2025-yillar uchun tasdiqlangan reja-jadval asosida mahallalarda kadastr xodimlari tomonidan xatlov ishlari boshlandi.

Kadastr agentligi ma’lumotlariga ko‘ra joriy yilning noyabr-dekabr oylarida 901 ta, 2025-yilda esa 2 980 ta mahallada xatlov o‘tkaziladi. 2026-2027-yillarda qolgan mahallalarda reja-jadval asosida xatlov ishlari olib boriladi.

“Xalq so‘zi”.

15 – 17-noyabr kunlari poytaxtimizda qilichbozlikning sablya yo‘nalishi bo‘yicha yoshlar o‘rtasida jahon kubogi bosqichi bo‘lib o‘tadi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1142. 11 728 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir S. Mamirov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 22.00 Topshirildi — 00.40 1 2 3 4 5 6